

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Suv ombori gruntli to‘g‘onlarida noturg‘un filtratsiyani va seysmik kuchlarni to‘g‘on yuqori qiyaligi turg‘unligiga ta‘sirini aniqlash va uni turg‘unligini ta‘minlovchi texnologiyani ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - qurilish maydonini injenerlik-geologik va gidrogeologik sharoitidan, to‘g‘on tanasi gruntini amaldagi fizik-mexanik va filtratsiyaga oid xossalaridan va ko‘z bilan kuzatish natijalaridan kelib chiqqan holda ko‘rib chiqilayotgan obyektning texnik holati baholanadi va eng kuchsiz zonalari aniqlanadi; - gruntli to‘g‘onlarda noturg‘un filtratsiyani hisoblash usuli ishlab chiqiladi; - to‘g‘on qiyaligi turg‘unligiga noturg‘un filtratsiyani va seysmik kuchlarni ta‘siri aniqlanadi; - gruntli to‘g‘onning filtratsiya deformatsiyalari yuz berishi mumkin bo‘lgan xavfli zonalari aniqlanadi; - gruntli gidrotexnika inshooti uchun seysmik ta‘sirda to‘g‘on tanasi gruntini amaldagi haqiqiy fizik-mexanik xarakteristikalarini va konstruktiv xususiyatlarini, hamda noturg‘un filtratsiya holatini (depressiya egri chizig‘ini) hisobga olib ikki o‘lchovli elastik holatdagi, masala uchun kuchlanganlik-deformatsiya holatini aniqlash usulini va algoritmini ishlab chiqiladi; - amaldagi me‘yoriy hujjatlar asosida masalani yechiladi va uni natijalarini ikki o‘lchovli holat uchun ishlab chiqilgan usul bilan taqqoslanadi; - noturg‘un filtratsiyada to‘g‘on qiyaligi turg‘unligini oshiruvchi konstruktiv tadbirlardan va filtratsiyani kamaytiruvchi resurs tejamkor texnologiyalardan maqsadli ravishda ushbu to‘g‘onlarda hamda loyihalananayotgan suv omborlari to‘g‘onlarida foydalanish uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi; - qurilish sohasining me‘yoriy hujjatlariga qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar beriladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.